

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 390-396 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.



Xasanova Sitora Islamovna

Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi
hasanovasitora26@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Aholi bandligi to'g'risida" qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qaroriga tayaniladi. Unda analiz va sintez, indukstiya va dedukstiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, statistik, so'rov kabi usullardan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: banlik, yollashga asoslangan bandlik, erkin bandlik, o'zini o'zi bandlik, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, yakka tartibda tadbirkorlik, kasanachilik, frilanslik, outsorsing.

Annotation. The Labor Code of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Employment of the Population", the President of the Republic of Uzbekistan "On Measures to Simplify State Regulation of Entrepreneurial Activity and Self-Employment" ", Decisions "On approval of the regulation on the procedure for carrying out activities as a self-employed person", President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures for the further development of home economics" The decision is based on the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On approval of the regulation on the procedure for carrying out activities as a self-employed person". It includes analysis and synthesis, induction and deduction, systematic approach, logical and methods of comparison, statistics, and surveys were used.

Keywords: employment, employment based on hiring, free employment, self-employment, self-employed persons, individual entrepreneurship, homemaking, freelancing, outsourcing.

Аннотация. Трудовой кодекс Республики Узбекистан, Закон «О занятости населения», Президент Республики Узбекистан «О мерах по упрощению государственного регулирования предпринимательской деятельности и самозанятости», Постановления «Об утверждении положения о порядке осуществления деятельности в качестве индивидуального предпринимателя», постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию отечественного хозяйства», основано на постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении положения о порядке осуществления деятельности в качестве самозанятого»

лица». Содержит анализ и синтез, индукцию и дедукция, системный подход, логический и сравнительный методы. анализа, используются статистические, опросные методы.

Ключевые слова: занятость, занятость по найму, свободная занятость, самозанятость, самозанятые лица, индивидуальное предпринимательство, ведение домашнего хозяйства, *freelancing*, *outsourcing*.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2023-yil 23-dekabrda 806-son "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarorni qabul qildi va unga muvofiq mamlakatimizda aholiy bandligini ta'minlashning yangicha – "O'zini o'zi band qilgan shaxs"ga ruxsat etildi. Ushbu me'yoriy-hujjatlar bilan O'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi berildi [1.2].

O'zini o'zi band qilgan shaxslar – mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslardir.

O'zbekistonda aholiy bandligining "Yakka tartibdagi tadbirkorlik" faoliyati bilan bir qatorda yana "O'zini o'zi band qilgan shaxslar"ning vujudga kelishi bandlikni ushbu yangicha shaklini ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi. Shuning uchun mazkur magistrlik dissertatsiya mavzusi dolzarb hisoblanadi. Zeroki, bozor iqtisodiyotining muhim elementi sifatida mehnat bozori xizmat qiladi. Mehnat bozorining xususiyatlaridan biri ishsizlikning mavjudligidir. Ishdan ayrilgan va uni qayta boshlashga tayyor bo'lgan odam uchun o'z-o'zini ish bilan ta'minlash kabi yangi bandlik imkoniyati vujudga keladi va u aholining kambag'allikdan chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi davrda aholini ish bilan band etish, "o'zini o'zi bandlik" ning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb muammo hisoblanadi.

Muhokama va natijalar

Aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda 2020 yil 20 oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida" qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunining 4-moddasida "Fuqarolarga o'zining ishlab chiqarishga va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalanish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan, shu jumladan haq to'lanadigan ishni bajarish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish bo'yicha mutlaq huquq tegishlidir"[1.1], deb belgilangan.

Iqtisodiy kategoriya sifatida aholi bandligi tushunchasini tahlil qilinganda, olimlar unga keng va tor ma'nodagi tavsiyalarni beradilar. Keng ma'noda - fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojini qondirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-foydali faoliyati va bu faoliyat unga ish haqi(daromad) keltiradi. Tor ma'noda - bu fuqarolarni ish o'rnini bilan

ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyati ishtirokidagi iqtisodiy munosabatlari majmui deyiladi [3.2].

Klassik nazariya maktabidan hozirgi xorij va o'zbek olimlarning "bandlik" atamasiga berilgan ta'riflarini tahlil qilsak (1-jadval). Jadvalda keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki bandlik ta'rifi Adam Smit yashagan davridan hozirgi davrgacha anchagina kengaytirilgan. Agar A.Smit o'zining «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» asarida ish bilan bandlikni "odamlarning faoliyati va intilishlari ularning shaxsiy iqtisodiy manfaatlari orqali belgilanishini ta'kidlaydi". O'zbek olimi Q.Abdurahmonov unga kengaytirilgan ta'rifini berib, qo'shimcha sifatida "fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan" ish bilan shug'ullanish va ularga ish haqi va daromad keltiradigan faoliyati turini kiritilgan.

1-jadval.

"Bandlik" tushunchasiga oid turlicha ta'riflari¹

Ta'rif mualliflari	Ta'riflar	Manba
Adam Smit	Odamlarning faoliyati va intilishlari ularning shaxsiy iqtisodiy manfaatlari orqali belgilanadi.	Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov. V 2 t. M.: Nauka, 1993. –570 s.
V.A. Pavlenkov	Aholi bandligi – bu qonunda belgilangan yoshga etgan va hozirgi paytda moddiy yoki pul shaklida daromadlar olib keladigan faoliyat bilan shug'ullanuvchi fuqarolardir.	Pavlenkov V.A. Rinok truda.Zanyatost. Bezrabotista. M.: MGU, 2004.- 584s.
E. V. Shuvaeva	Bandlik ixtiyoriy ishlab chiqarishga xos va unda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi hamda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish va faoliyat ko'rsatish sharti hisoblanadi. Bandlik yollanma ishchi kuchi yoki mehnat bozori paydo bo'lmasdan ancha oldin shakllangan.	Shuvaeva E. V. Zanyatost kak vajneyshiy element trudovyx otnosheniy // Aktualnye voprosy ekonomicheskix nauk : Materialy mejdunarod. nauch. konf. – Ufa : Leto, 2011.234-238 s.
Q.X.Abdurahmonov	Ish bilan bandlik – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan ularga ish haqi va daromad keltiradigan faoliyatidir.	Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). -T.: Mehnat. -2009. -512 b


¹Manba: jadval monografik tahlil asosida muallif tomonidan tuzilgan.

A.O'lmasov va A.Vahobov	Bandlik mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan va mehnat qilishga ishtiyoqi bor kishilarni ishga joylashib, foydalanish mehnat bilan mashg'ul bo'lishlaridir.	O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2014.- 424 b.
Sh.R. Xolmo'minov	Aholi bandligi - ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida aholini ish joyi va bir vaqtning o'zida insonni yashashi uchun zaruriy mablag' bilan ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari shakllanishini ta'minlaydi.	Xolmo'minov Sh.R. Mehnat bozori rivojlanishining tahlili. Jamoaviy monografiya. T.: Fan va texnologiya, 2016.- 137 b.

Biz O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida" qonunining 4-moddasida "Bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir" degan ta'rifni ma'qul, deb hisoblaymiz.

Aholining bandligi uni kambag'allikdan chiqarishning zaruriy shartidir. Aholining ish bilan bandligi tushunchasi iqtisodiy fanning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va ikkita nuqtai nazarga tayanib o'rganiladi

(1-rasm): 1) bandlik iqtisodiy tushuncha sifatida. Bu holda u mehnatga yaroqli aholining shaxsiy va ijtimoiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish va daromad keltirish bilan bog'liqdir; 2) bandlik iqtisodiy muammo sifatida. Bunda u mehnat zaxiralaridan foydalanish darajasi va mehnat bozoridagi vaziyatni tavsiflovchi xamda mehnatga yaroqli jami aholi bilan band bo'lganlar miqdori orasidagi farqni bildirish maqsadida o'rganiladi.




Bandlik - bu fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, qonunlarga zid kelmaydigan va ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir. Bandlik holati ishchi kuchidan samarali foydalanish darajasiga ko'ra to'rt

²Manba: rasm muallif tomonidan tuzilgan.

guruhga ajratiladi (2-rasm). Bular: 1) to'la bandlik; 2) samarali bandlik; 3) to'la bo'lmagan bandlik va 4) mustaqil bandlik.

To'la bandlik mehnatga qobiliyat yoshdagi mehnatga qobiliyatli aholining deyarli barchasining ish bilan bandligini anglatadi. Jaxon mamlakatlarining



2-rasm. Aholiy bandligini tasniflashi³

tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, to'la bandlikka erishish iqtisodiyot rivojlanishining asosiy maqsadi bo'lmasligi kerak, chunki bunday bandlik xolati mamlakat iqtisodiy rivojlanishining tabiiy darajasi bilan bog'liq. Shuning uchun xozirga kelib, jahonning ilg'or mamlakatlari iqtisodiyot taraqqiyotining yuqori darajaga olib chiqish bilan to'la bandlik sari intiluvchi iqtisodiy siyosatga amal qilishmoqda.

Samarali bandlik deyilganda iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholining ishchi kuchidan yuqori unum bilan foydalanishning to'xtovsiz jarayoni tushuniladi. Samarali bandlikning asosiy mezon bo'lib mehnat unumdorligining o'sishi xisoblanadi.

Bandlikning iqtisodiyot rivojlanishining ba'zi bosqichlari uchun muhim hisoblangan ko'rinishlaridan biri to'liq bo'lmagan bandlikdir. To'liq bo'lmagan bandlik deyilganda ishchi kuchining qisqartirilgan ish rejimlarida va tartibda ishlash muayyan xolatiga aytiladi.

“Aholi bandligi to'g'risida” Qonunda (4-modda) quyidagilar ish bilan ta'minlangan (bandlar) deb hisoblanadi [1.1]:

³ Monografik tahlil asosida muallif tomonidan tuzilgan.

-mehnat shartnomasi bo'yicha haq evaziga to'liq yoki to'liqsiz ish vaqti shartlari asosida ishlayotgan yoxud kasanachilik bilan shug'ullanayotgan, shuningdek haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;

-kasalligi, ta'tilda bo'lishi, kasbga tayyorlashda, qayta tayyorlashda yoki malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarish to'xtatib turilganligi munosabati bilan, shuningdek qonunchilikka muvofiq vaqtincha ish joyida bo'lmagan xodimning ish o'rni saqlanib qoladigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar;

-haq to'lanadigan lavozimga saylangan yoki tayinlangan fuqarolar;

-O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati tizimida, bojxona organlarida va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralarda xizmatni o'tayotgan fuqarolar;

-o'zini ish bilan mustaqil ravishda ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan hunarmandlar, oilaviy korxonalarining ishtirokchilari, dehqon xo'jaliklarining, ishlab chiqarish kooperativlarining a'zolari, fermer xo'jaliklarining a'zolari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar sifatida ro'yxatga olingan shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bo'yicha, shu jumladan fuqaroviy-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa shaxslar;

-O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar;

-o'z faoliyatini qonunchilikka muvofiq amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarida, shu jumladan diniy tashkilotlarda ishlayotgan fuqarolar.

Ushbu Qonunda bandlikning quyidagi asosiy prinsiplari belgilab berilgan:

-bandlik turini tanlashning ixtiyoriyligi va erkinligi;

-aholi bandligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

-kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;

-shaffoflik va ochiqlik;

-ishsizlikdan himoya qilish va ishga joylashishda, kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan hamda malaka oshirishdan o'tishda ko'maklashish;

-O'zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish izlash va ishga joylashish uchun huquqni ta'minlash;

-kasb egallash va ishga kirishdagi, mehnat qilish va bandlikni ta'minlash sharoitlaridagi, mehnatga haq to'lashdagi, xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishdagi imkoniyatlar tengligining kafolati;

-majburiy mehnatni taqiqlash, ya'ni biron-bir jazo qo'llash tahdidi bilan ish bajarishga majburlashni taqiqlash.

O'zini o'zi bandlikning yangicha—"frilans" va "frilanser" va "frilanserlik" deb nomlanadigan bandlik va band shaxslarga tegishli iboralar xorij malakatlarda paydo bo'lgan. "Frilans" so'zi inglizcha "freelance" so'zidan olingan bo'lib, "free"—erkin va "lance"—nayzani (1-rasmga qarang) anglatadi.

O'zbekistonda ilg'or xorij tajribasi sifatidagi aholining o'zi o'zini ish bilan bandligining "outsorsing" xizmatlaridan foydalanilmoqda. **Autorsing**— bu sizning firmangiz faoliyatiga xizmat ko'rsatish funksiyasining bir qismini boshqa bajaruvchi

tashkilotga berish. "Autsorsing" (inglizcha «outsourcing» – tashqi pudrat) – bu tashkilot tomonidan ishlab chiqarish-tadbirkorlik faoliyatining muayyan turlari yoki funkstiyalarini shartnoma asosida kerakli sohada faoliyat yuritayotgan boshqa kompaniyaga yoki jismoniy shaxs tomonidan o'tkazilishidir.

O'zini o'zi bandlikka asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga tayanish zarurdir. Bunda yoshlarning kasbga yo'naltirish va kasb-korga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Kishi smarali band bo'lishi uchun kasb-hunarini tijoratlashtirish yo xud uni ayirboshlashi lozim. Kasb-hunarni tijoratlashtirishning ikkala – ham ishbilarmonlik va ham tadbirkorlik yo'lida rivojlantirish lozim. Ayniqsa, kasb-hunarni tijoratlashtirishning tadbirkorlik yo'lini kollej bitiruvchilariga "O'z ishizni yarating" maxsus fanini o'qitish orqali rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak.

Kambag'allikni qisqartirish va aholiy bandligini oshirish maqsadida O'zbekistonda o'zini o'zi bandlikning yagicha – *kasanachilik, frilanslik va autsorsing* shakllaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1 O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida" qonuni. 2020-yil 20-oktabr, O'RQ-642-son. <https://lex.uz/acts/14893>

1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 dekabrda 806-son "O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi Qaror. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020 й., 09/20/806/1662-son.

II. Darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalar:

2.1 Menedjment- Uslubiy qo'llanma. "Durdon nashriyoti" Buxoro 2021 yil Rahmatullayeva F.M, Giyazova N.B

2.2. Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну. - М.: Прогресс-Традиция, 2000, 234 с.

2.3. Бехтель М. Будущее труда: Размышления, взгляды, перспективы. / М. Бехтель. – Inter Nationes, 2000, 125 с.

III. Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

3.1. Хатамов О.Қ., Ортиқов Ш. М. Аҳоли бандлигини таъминлаш моделлари ва ундан ўзбекистон шароитида фойдаланиш имкониятлари. *Iqtisodiyotvainnovatsion texnologiyalar* ilmiyelektronjurnali. № 4, iyul-avgust, 2019 yil. 78-89 б.

3.2 Малый бизнес в сельском туризме и агротуризме- Достижения науки и Образования научно - методический журнал.-Россия [https:// scientifictext.ru](https://scientifictext.ru) № 5 (59), 2020- С. 29-31 Тоирова М.М Усмонова А.Б

